



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
DAVLAT TEST MARKAZI

REPETITSION TEST TOPSHIRUVCHILAR UCHUN

**TEST TOPSHIRIQLARI
KITOBI**

ABITURIYENT: _____
F.I.O. _____ Imzo _____

ABITURIYENT DIQQATIGA!

Test topshiriqlarini yechishdan avval kitobni varaqlab, unda har bir fan bo'yicha 30 ta topshiriq mavjudligini tekshiring. Agar topshiriqlar soni kamligi aniqlansa yoki kitob raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya nazoratchisiga ma'lum qiling.

Test topshiriqlari kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.

33

FANLAR:

- | | |
|---------------------------------|---------------------------|
| 1. <i>Ona tili va adabiyoti</i> | 1-30 topshiriqlar |
| 2. <i>Biologiya</i> | 31-60 topshiriqlar |
| 3. <i>Kimyo</i> | 61-90 topshiriqlar |

Kitob raqami: **1906987**

Toshkent – 2018



ONA TILI VA ADABIYOTI

1. Quyidagi gaplardan qaysilarida fonetik o'zgarish asosida yozilgan so'z yasovchi morfema qatnashgan?
 1. Shirin yolg'ondan achchiq haqiqat yaxshi.
 2. Butun xalqning istagi shu – tinchlik.
 3. Dangasa va yalqovlar hech qachon sanoqda bo'lmaydi.
 4. Hayajonlanganimdan tanamning og'rig'ini ham sezmabman.

A) 1, 2 B) 1, 3, 4 C) 2, 3, 4 D) 1, 2, 3, 4
2. To'g'ri hukmn ni aniqlang.
 - A) jarangli justi yo'q jarangsiz undoshlar hosil bo'lish o'rniga ko'ra bir guruhga mansub undoshlar sanaladi
 - B) ovozdor undoshlarda shovqin ishtirot etmaydi
 - C) jarangsiz justi yo'q jarangli undoshlar faqat sonor undoshlar guruhiga mansub
 - D) jarangli va jarangsiz juftlik hosil qiluvchi undoshlar shovqinli undoshlarga mansub
3. Qaysi javobdag'i so'z noto'g'ri yozilgan?
 - A) melodramma
 - B) tatbiq
 - C) tadqiqot
 - D) talafot
4. Quyida berigan so'zlardan nechta siyosatni ham omonimlik, ham ko'p ma'nolilik xususiyatiga ega?

ortmoq, chaqmoq, atlas, burun, quymoq, qorachiq

A) 3 B) 5 C) 6 D) 4
5. Berilgan gapda so'z yasovchi morfemalar bilan omonim bo'la oladigan fe'lning munosabat shakllari necha o'rinda qatnashgan?
Sizni eshitsak, aqlimizga aql qo'shamiz, otaxon, so'zlang.

A) 2 B) 1 C) 4 D) 3
6. Bemor ayollar bilan gaplashdi-yu, lekin turmushi haqida ochiq gapirmadi.
 Ushbu gapdagi ism asosli yasama so'zlar sonini aniqlang.

A) 3 ta B) 4 ta C) 2 ta D) 1 ta
7. Olmosh shaxs otiga tobelanib kelgan gapni aniqlang.
 - A) Dildorning ba'zi gaplari haqiqat edi.
 - B) Sinfimizdag'i barcha o'quvchilar sport to'garaklariga qatnashadilar.
 - C) Bizning orzu-niyatlarimiz ko'p va ulug'.
 - D) Har qanday go'zallik zamirida mehnat yotadi.
8. Quyida keltirilgan gap qaysi so'z turkumlaridan tashkil topgan?

Afsuski, endi men ketaman.

 - A) modal so'z, ravish, olmosh, fe'l
 - B) undov so'z, hol, ega, kesim
 - C) kirish so'z, ravish, olmosh, fe'l
 - D) undov so'z, ravish, olmosh, fe'l
9. Qaysi qatorda shakl yasovchi qo'shimchalar bilan omonimlik hosil qila oladigan ravish yasovchi qo'shimchalar berilgan?

A) -larcha, -in, -chak B) -siz, -lab, -larcha
 C) -siz, -cha, -lay D) -in, -ma, -an
10. Qaysi gapda qo'llangan hisob so'zning yetakchi morfemasi uch turkum doirasida shakldosh bo'la oladi?
 - A) Bir tomchi suv chumoliga daryodek ko'rindi.
 - B) Ijozat bersangiz, bu xususda men ham bir-ikki og'iz gap aytasam.
 - C) Qorni to'q bo'lishiga qaramay, bir-ikki tilim handalak yedi.
 - D) Engashib, yashikdan ikki bo'lak ko'mir olib soldi.

11. Qaysi javobda keltirilgan fe'llar fe'lidan anglashilgan harakat-holat bilan shu harakatni yuzaga chiqaruvi shaxs o'rtasidagi munosabatning ifodalananishiga ko'ra farqlanadi?
 - A) bordim, boraman, boryapman
 - B) boraman, borsam, boray
 - C) bordim, boarding, bordi
 - D) bordi, borildi, borishdi
12. Qaysi gapda yetakchi va ko'makchi fe'lning yetakchi morfemasi shakldoshlik xususiyatiga ega bo'lgan ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi mavjud?
 - A) U bilmasdan sirini aytib qo'ydi.
 - B) Talaba kutilmagan savoli bilan o'qituvchini o'yantirib qo'ydi.
 - C) Xayol surgancha qog'ozga allanimalarni yoza berdi.
 - D) U hamma narsani ochiq-oydin so'zlab berdi.
13. Qaysi javobda vazifadosh biriktiruv bog'lovchilari keltirilgan?
 - A) -u, -yu, -da, na ... na
 - B) -u, -yu, -da, bilan
 - C) -u, -yu, -da, ba'zan
 - D) -u, -yu, -da, balki
14. Qaysi javobda bosh kelishidagi ismlar bilan birga qo'llaniladigan sof ko'makchilar berilgan?
 - A) bilan, uchun, sari, sayin
 - B) bo'ylab, boshlab, chamasi, haqida
 - C) sababli, tufayli, orgali, tomon
 - D) sayin, singari, holda, to'g'risida
15. Vositasiz to'ldiruvchi yasama fe'l bilan ifodalangan vositasiz to'ldiruvchiga tobelangan gapni aniqlang.
 - A) Dangasaning non yeyishini ko'r.
 - B) Nomni ta'riflashga har qanday so'z ojizlik qiladi.
 - C) Radiodan taralayotgan kuy qalblarga orom bag'ishlar edi.
 - D) Bolalar ota-onani, ustozni hurmat qilishni bilishlari kerak.
16. Bu qasidam senga, xalqim,
 Oq sut-u tuz hurmati
 Erkin o'g'lingman, qabul et,
 O'zbegin, jon o'zbegin.
 Berilgan parchada qatnashgan kesimlar sonini toping.

A) 4 ta B) 3 ta C) 2 ta D) 5 ta
17. Yo'q, men uni yozganim yo'q. Uni siz yozgansiz.
 Men uni qog'ozlarga tushirib, odamlarga tarqatdim, xolos. Men uni dunyodagi hamma onalar o'qishini xohlayman. Bilaman, dunyodagi hamma onalar yaxshi, shundoq bo'lsayam, ularning hammasi sizga o'xshashini xohlayman.
 Ushbu gapda olmoshlar necha o'rinda qaratqich aniqlovchi vazifasini bajargan?

A) 3 B) 2 C) 5 D) 4
18. Vatanning kun sayin obod bo'layotgani, yangi yo'llar, muhtasham inshootlar barpo etilayotgani yurtdoshlarimiz qalbiga faxr-iftixon baxsh etmoqda.
 Ushbu gapda qaysi gap bo'laklari uyushgan?

A) ega B) qaratqich aniqlovchi
 C) ega, sifatlovchi aniqlovchi D) ega, qaratqich aniqlovchi
19. Safar qilsang, uydan ko'ngling to'q qilgin,
 Lekin g'iybat bor joylarda yo'q bo'lgan,
 Sho'ir bo'lsang, yomonlikka o'q bo'lgan,
 Dardilarning dillarini yorit, bolam.
 Ushbu gap...
 - A) bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap
 - B) bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap
 - C) aralash murakkab qo'shma gap
 - D) qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap

20. "Husayin Voiz Koshifiy Sharqda ma'lum va mashhur shaxs, — deb yozadi Najmiddin Komilov "Tafakkur karvonlari" asarida. — U Navoiyga bag'ishlab kitob yozgan, uning mehrini qozongan yaqin kishisi, muxlisi, do'sti edi". Berilgan ko'chirma gapli qo'shma gapning muallif gapi qismida kesim qaysi zamon ma'nosini anglatgan?
- A) kelasi zamon B) hozirgi zamon C) o'tgan zamon
D) hozirgi-kelasi zamon
21. Odam uchta narsaning qadrini doim kechikib biladi: yoshlik, sog'lik, tinchlik.
Ushbu gapdagi ikki nuqtaning qo'yilish sababi to'g'ri izohlangan javobni toping.
- A)izoh munosabatli bog'lovchisiz qo'shma gap bo'lgani uchun
B)ajratilgan bo'lak qatnashgani uchun
C)umumlashtiruvchi bo'lak uyushiq bo'laklardan oldin kelgani uchun
D)gap bo'laklari bilan aloqaga kirishmaydigan bo'laklarni ajratish uchun
22. Xalq dostonlaridagi qaysi qahramonga nisbatan "... zo'rlik nomiga boshida tilla jig'asi bor, ostida suvoriga minib yuradigan saman yo'rg'asi bor..." degan ta'rif qo'llangan?
A) Alpomish B) Ko'kaldosh C) Rustam D) Ko'kaman
23. "Kitobimni o'qigan, ko'rgan, eshitgan kishi shohimni duo bilan yod qilsin deb (yozdum). Kelgusi avlodlar uchun uning nomi mangu esdalik bo'lsin deb (yozdum). Uning muhabbatini bilan ko'ngillar to'lib, yodi bilan dunyo to'lsin deb (yozdum)... Men buni muhabbatimni yaxshi, (tugal) bilsin deb shohimga tortiq qildim".
Ushbu parchada muhabbat bilan tilga olingan shoh kim?
A)Abulqosim Abdullo binni Muhammad al-Muqtado
B)Muhammad Xo'jabek
C)Dod Sipohsorbek
D)Nosiruddin To'qbo'g'a
24. Maylni qo'yki, vola-u zor ul,
Jon berib vaslig'a xaridor ul.
Bo'yakim hajr qo'ydi bag'rig'a dog',
Manzil o'l mish edi anga ul bog'.
Ushbu misralar "Mehr va Suhayl" dostonida qaysi qahramon ruhiy holatini aks ettirgan?
A) Mehr B) Suhayl C) Jobir D) Navdar
25. Shermuhammad Munis qalamiga mansub asarlar berilgan javobni toping.
- A) "Arnalar", "Savodi ta'lim"
B) "Savodi talim", "Ta'viz ul -oshiqin"
C) "Saodat ul-iqbol", "Munis ul-ushshoq"
D) "Gulshani davlat", "Munis ul-ushshoq"
26. Qaysi javobda nomi keltirilgan she'rni Usmon Nosir Boltiq va Oq dengiz bo'yalariga safari chog'ida yozgan?
A) "Bolaligimda" B) "Yur tog'larga chiqaylik"
C) "Yo'ichi" D) "Yurganmisiz birga oy bilan"
27. Abdulla Oripov qalamiga mansub quyidagi misralarda qaysi kuy nazarda tutilgan?
Kuyi shunday bo'lsa, g'amning o'ziga
Qanday chiday oldi ekan odamzod?!
- A) "Dilxiroj" B) "Cho'li iroq" C) "Tanovar"
D) "Munojot"
28. "Sohibqiron" dramasida Rum sultoni Yeldirim Boyazid asir olingani haqidagi xushxabarni keltirgani uchun Amir Temur kimga bir nabirasini nikohiga berishini va'da qiladi?
A) yasovul Qosimbekka B) Barlos Bahodirga
C) Buqalamunga D) Aloviddinga
29. "... Bolalik nafaqat quvnoq davr, bolalik inson shaxsi shakllanishining ilk davri hamdir" ushbu fikr muallifi kim?
A) Oybek B) G'afur G'ulom C) Ch. Aytmatov
D) A. Qahhor
30. Berilgan baytlarning qaysi birida muqayyad qofiya qo'llangan?
- A) Tushdi savdoysi muhabbat boshima,
Or etar mardum kelurg'a qoshima.
B) Sendek menga bir yori jafokor topilmas,
Mendek senga bir zori vafodor topilmas.
C) Shohim, sanga ma'lum emastur, ne qilay,
Ohim sanga ma'lum emastur, ne qilay.
D) Hajri aro orom-u qarorim yo'qtur,
Vaslig'a yetarg'a ixtiyorim yo'qtur.

BIOLOGIYA

31. Transkripsiya jarayoni haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.
A) Energetik almashinuv reaksiyasi hisoblanadi va ATF energiyasi sarflanadi.
B) Timin dezoksiribonukleotidlari adenin ribonukleotidlarning komplementarligi asosida ro'y beradi.
C) Uratsil ribonukleotidlarning adenin ribonukleotidlari komplementarligi asosida ro'y beradi.
D) Oq po'panak hujayrasida bu jarayon faqat sitoplasmada sodir bo'ladi.
32. Mustaqil kelib chiqishiga ega va prokariot hujayra sifatida paydo bo'lgan organoidlar keltirilgan javobni belgilang.
A) xloroplast, mitokondriya B) yadro va yadrocha
C) endoplazmatik to'r, Golji majmuasi
D) lizosoma, Golji majmuasi
33. Aerob sharoitda sebarga o'simligi hujayrasida 38 molekula ATF hosil bo'lgan bo'lsa, shu vaqtning o'zida yorug'lik ta'sirida sintezlangan ATF da to'plangan energiya miqdorini (kJ) aniqlang.
A) 45600 B) 1140 C) 1520 D) 2720
34. O'simlik mitokondriyasida oksidlanish jarayonida 36 molekula ATF sintezlangan bo'lsa, sitoplasmada qancha energiya (kJ) issiqlik sifatida tarqalganligini (a) va shu vaqt davomida xloroplastda hosil bo'lgan ATF molekulasi sonini (b) aniqlang.
A) a-120; b-1140 B) a-240; b-2280 C) a-240; b-4320
D) a-120; b-1080
35. Meyoz jarayonining anafaza I bosqichida 2 ta qutbga 20 tadan autosoma tarqaldi. Ushbu holatni qaysi organizmda kuzatish mumkin?
A) turp B) zog'ora baliq C) qalampir
D) qora kalamush
36. Gorilla somatik hujayrasida sodir bo'ladigan mitoz jarayoni haqida to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.
1) profazada ikki xromatidali xromosomalar soni 48 ta;
2) anafazada xromosomalar soni 92 ta; 3) metafazada ikki xromatidali autosoma xromosomalar soni 46 ta; 4) anafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 92 ta; 5) metafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 48 ta; 6) interfaza G_2 davrida ikki xromatidali xromosomalar soni 46 ta
A) 4, 6 B) 4, 5 C) 1, 3 D) 2, 6

- 37.** Guruhli xarakterga ega o'zgaruvchanlik haqidagi noto'g'ri fikrlarni aniqlang.
- A) tur ichidagi xilma-xillikning birdan-bir manbai, oraliq formalarsiz paydo bo'ladi
 B) o'zgarishlar bir xil yo'nalishda ega, ularning namoyon bo'lish darajasi har xil organizmlarda turlicha bo'ladi
 C) tur vakillarining deyarli barchasi uchun bir xilda bo'ladi, fenotipik o'zgaruvchanlik deyiladi
 D) o'zgaruvchanlik chegaralari genotip bilan aniqlanadi, bir xil yo'nalishli bo'ladi, irlsiyanish xususiyatiga ega emas
- 38.** Inversiya (I); introduksiya (II) va inversiya (III) tushunchalariga mos ta'riflarni juftlang.
- a) xromosoma ayrim bo'lagining 180° ga burilishi;
 b) xromosoma ayrim qismining ortishi; c) DNA bo'lagi genomning ma'lum joylariga kirishi; d) o'simliklarni iqlimlashtirish
- A) I-b; II-a; III-d B) I-c; II-d; III-a C) I-c; II-b; III-a
 D) I-a; II-b; III-c
- 39.** Qaysi o'simliklarning bargi oddiy yonbargchasisiz (a) va murakkab yonbargchali (b) bo'ladi?
- 1) lavlagi; 2) yantoq; 3) baliqko'z; 4) tok; 5) shirinmiya; 6) kanop; 7) no'xat; 8) yeryong'oq
- A) a - 1, 3; b - 5, 7, 8 B) a - 1, 2, 3; b - 7, 8
 C) a - 2, 3, 4; b - 5, 7, 8 D) a - 4, 6; b - 5, 8
- 40.** Qirqquloqlarda murtakdan rivojlanuvchi bo'g'inda qanday qismilar hosil bo'ladi?
- 1) ildizpoya; 2) barg; 3) poya; 4) rizoid; 5) sporangiy; 6) anteridiy; 7) sporalar; 8) sorus; 9) arxegoni; 10) gametalar
- A) 4, 7, 8 B) 4, 6, 9 C) 1, 3, 10 D) 1, 2, 5
- 41.** Suv qirqqulog'i tushunchasi bilan mantiqiy bog'liq bo'lgan atamalarni aniqlang.
- 1) urug; 2) ildizpoya; 3) ikki jinsli gametofit; 4) sporofill; 5) poya va barg; 6) arxegoni; 7) urug'kurtak; 8) endosperm; 9) anteridiy; 10) zigota; 11) spora beruvchi boshoq; 12) sporali meva.
- A) 5, 6, 9, 10 B) 6, 8, 10, 12 C) 3, 6, 9, 11
 D) 1, 2, 4, 7
- 42.** Karamdoshlar oilasi vakillari bilan ra'nodoshlar oilasi vakillarining o'xshashliklarini toping.
- 1) gulqo'rg'oni murakkab, 5 a'zoli; 2) barglari yonbargchali; 3) gullari to'g'ri, ikki jinsli; 4) shingil to'pgul hosil qiladi; 5) changchilar ikkita halqada joylashgan; 6) barglari doim oddiy; 7) barglari poyada ketma-ket joylashgan
- A) 5, 6 B) 3, 4, 7 C) 1, 2 D) 2, 3, 6
- 43.** Qora ituzum o'simligi bilan bir sinfga (a) va bir oilaga (b) mansub o'simliklar to'g'ri juftlangan javobni aniqlang.
- A) a-keyreuk, xolmon, petrushka; b-bangidevona, garmdori, baqlajon
 B) a-tog'olcha, yapon saforasi, andiz; b-pomidor, tamaki, Oloy xiyoli
 C) a-Oloy xiyoli, olg'i, oshqovoq; b-yeryong'oq, tamaki, baqlajon
 D) a-ebalak, rediska, bug'doy; b-burchoq, afsonak, xarduma
- 44.** Chala metamorfoz bilan rivojlanuvchi hasharotlar turlari (sistematik birlik nomi) keltirilgan javobni aniqlang.
- A) sariq suvarak, qora chirildoq, yashil temirchak, to'shak qandalasi, suluv ninachi
 B) to'g'riqanotlilar, termitlar, qandalalar, ninachilar
 C) hasva qandalasi, turiston termiti, to'g'riqanotlilar, moviy ninachi
 D) chalaqattiqqanotlilar, suvaraklar, ninachilar, to'g'riqanotlilar, burgalar
- 45.** Quyidagi qaysi organizmlar issiqliqlari hisoblanadi?
- 1) gambuziya; 2) povituxa; 3) ko'ibuqa; 4) bog' moyqurti; 5) kvaksha; 6) kabarga; 7) semga; 8) qizilto'sh; 9) sarisor; 10) sargan
- A) 1, 4, 6, 7, 9 B) 2, 3, 5, 8, 10 C) 3, 4, 6, 8, 9
 D) 1, 2, 5, 7, 10
- 46.** Kutora va ko'ibuqa uchun umumiyligi ma'lumotlarni aniqlang.
- 1) diafragmaning mavjudligi; 2) xordaning faqat embrionlik davrida mavjud bo'lishi; 3) embrionlarning o'xshashlik qonuniga bo'yusunishi; 4) ovogenezdus tuxum hujayra qo'shimcha qobiqlar bilan o'ralganligi; 5) bir necha suyaklar qo'shib bitta ilik suyagini hosil qilishi; 6) bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'i burmalar hosil qilishi
- A) 2, 3 B) 2, 5 C) 1, 6 D) 4, 5
- 47.** Koala va kaputsin uchun umumiyligi ma'lumotlar to'g'ri berilgan javobni toping.
- 1) sutevizuvchilar sinfiga kiradi; 2) bolasini sut bilan boqadi; 3) qo'lqanotlilar turkumi vakili; 4) oldingi oyog'i kapalak qanotiga nisbatan analogik organ hisoblanadi; 5) barmoqlarida yassi tirnoqlari bo'ladi; 6) tanasi jun bilan qoplangan; 7) burni va og'zidan ultratovush chiqaradi; 8) primatlar turkumiga kiradi; 9) rangni yaxshi ajratadi; 10) kloakasi bo'lmaydi
- A) 1, 2, 6, 10 B) 3, 5, 7, 9 C) 3, 4, 6, 7 D) 1, 5, 8, 9
- 48.** O'simlikxo'r umurtqali (a), yirtqich umurtqasiz (b) hayvonlarni aniqlang.
- 1) sayg'oq; 2) tillako'z; 3) kolorado qo'ng'izi; 4) muflon; 5) bo'rsiq; 6) falanga; 7) xonqizi; 8) zlatka; 9) biy; 10) ko'l baqasi
- A) a - 4, 5; b - 7, 10 B) a - 1, 4; b - 2, 6
 C) a - 3, 8; b - 7, 9 D) a - 4, 10; b - 8, 9
- 49.** Nafas olish organlari kasalliklarini aniqlang.
- 1) rinit; 2) faringit; 3) bronxit; 4) gepatit; 5) botulizm; 6) dizenteriya; 7) zotiljam; 8) laringit
- A) 2, 3, 7 B) 1, 2, 4 C) 2, 3, 5 D) 3, 6, 8
- 50.** Odam tanasidagi tashqi qovurg'alararo muskullarga xos to'g'ri ma'lumotni belgilang.
- A) Hujayralari tarkibidagi miofibrl bilalari hisobiga qisqarib-yoziladi, gavda muskullari guruhiha kiradi
 B) Ko'krak qafasi muskullari guruhiha mansub, nafas olish va chiqarishda qisqaradi
 C) Funksiyasi bosh miya katta yarimsharlari po'stloq qismining orqa markaziy pushtasi tomonidan boshqariladi
 D) Orqa miya bo'yin segmentining oldingi shoxidan chiquvchi sezuvcchi va orqa shoxidan chiquvchi harakatlantiruvchi nerv tolalari orqali boshqariladi
- 51.** Qaysi kasallikning og'ir ko'rinishlarida bemorning tanasi shishadi, aqliy faoliyat zaiflashib, esda saqlash, o'zlashtirish qobiliyati pasayadi?
- A) gipotireoz B) tireotoksikoz C) gipovitaminoz B₁
 D) bazedov kasalligida
- 52.** Odam organizmida endokrin sistemasi a'zolarining joylashgan o'rnnini aniqlang.
- 1) qalqonsimon bez; 2) ayrisimon bez; 3) epifiz; 4) gipofiz; 5) qalqon orqa bezlar;
- a) hiqilda qisqarib-yoziladi va yon tomonlarida; b) kalla suyagining turk egarchasi deb atalgan qismida; c) o'rta miya sohasida; d) qalqonsimon bezning orqa yuzasida; e) to'sh suyagining orqa yuzasida
- A) 1 - a; 2 - e; 3 - c; 4 - b; 5 - d
 B) 1 - e; 2 - a; 3 - c; 4 - d; 5 - b
 C) 1 - a; 2 - d; 3 - b; 4 - c; 5 - e
 D) 1 - a; 2 - e; 3 - b; 4 - c; 5 - d

53. Harakatlantiruvchi tanlanishga xos bo'lмаган xususiyatlarni ko'rsating.
- reaksiya normasini saqlagan organizmlar qiriladi, yangi turlarning paydo bo'lishiga xizmat qiladi
 - organizmlarning o'zgargan muhitga moslanuvchanligini ta'minlaydi, reaksiya normasini saqlagan organizmlar qiriladi
 - o'zgargan muhit sharoitida namoyon bo'ladi, yangi turlarning paydo bo'lishiga xizmat qiladi
 - turg'un muhitda o'zgargan organizmlarning qirilishiga olib keladi, reaksiya normasini saqlagan organizmlar soni ortadi;
54. O'simliklarning suv muhitidan quruqlikda yashashga, spora bilan ko'payishdan urug'dan ko'payishga o'tishi evolyutsion jarayonning qaysi yo'nalishiga va qaysi holatiga misol bo'ladi?
- biologik regress; 2) biologik progress;
 - a) aromorfoz; b) idioadaptatsiya; c) umumiy degeneratsiya
- A) 1 - a B) 1 - c C) 2 - a D) 2 - b
55. Quyidagi misollar evolyutsiyani isbotlovchi qaysi fan dalili hisoblanadi?
- 1) odam DNA molekula tuzilishi makaka maymuni DNA tuzilishiga 66% o'xshash; 2) embrion rivojlangan sari turli sinfga kiruvchi hayvonlar orasidagi o'xshashlik kamaya boradi; 3) kaktusning tikanlari barg, do'lananing tikanlari poyanining o'zgarishidan hosil bo'lgan; 4) Yevropa zubri Shimoliy Amerikadagi bizonga o'xshaydi.
- paleontologiya; b) molekulyar biologiya; c) embriologiya; d) solishtirma anatomiya; e) biogeografiya
- A) 1 - d; 2 - a; 3 - b; 4 - c B) 1 - b; 2 - c; 3 - d; 4 - e
C) 1 - d; 2 - c; 3 - a; 4 - b D) 1 - b; 2 - c; 3 - a; 4 - e
56. Abiotik omillarning ta'siri to'g'ri moslashtirilgan javobni toping.
- namlik; b) topografik;
- 1) odamlarda gipoksiya belgilaringin paydo bo'lishi; 2) terida melanin pigmentining hosil bo'lishi; 3) hasharotlarda nafas teshiklarining klapanlar bilan beklilishi; 4) ko'pchilik cho'lida yashaydigan hayvonlarning tunda faol bo'lishi; 5) tog'larda yashovchi odamlar qonida eritrotsitlarning ko'p bo'lishi
- A) a-2, 4; b-3, 5 B) a-2, 5; b-3, 4 C) a-3, 4; b-1, 5
D) a-1, 5; b-3, 4
57. Ma'lum iRNK tarkibidagi nukleotidlarning 40%ini Adeninli, 30%ini Guaninli nukleotidlard tashkil qiladi. Sitozinli va Uratsilli nukleotidlard miqdori teng bo'lsa, shu iRNK asosida teskari transkripsiyalangan DNA fragmentidagi Sitozinli nukleotidlard necha foizni tashkil etadi?
- A) 55 B) 27,5 C) 15 D) 22,5
58. (A+T)-(G+C)=30 bo'lgan holatdagi DNA molekulasi fragmentida 360 ta vodorod bog'i mavjud bo'lsa, DNA fragmentidagi G va C nukleotidlari orasidagi vodorod bog'lari sonini aniqlang.
- A) 145 B) 198 C) 132 D) 162
59. Havorang patli (A) to'ti oq patli to'ti bilan chatishirilsa, birinchi avlodda patning havorang belgisi dominantlik qiladi, sariq patli (B) to'tilar bilan oq patli to'tilarini chatishirganda birinchi avlodda patning sariq rang belgisi dominantlik qiladi. Havorang patli to'tilar bilan sariq patli to'tilarini chatishirishda olingen birinchi avlod to'tilarining pati yashil rangda bo'ladi. Qaysi chatishirishlar natijasida genotip bo'yicha 1:1:1:1 nisbatda ajralish sodir bo'ladi?
- $Aabb \times Aabb$; 2) $AaBb \times aabb$; 3) $aaBb \times aaBb$;
 - $Aabb \times AaBb$; 5) $Aabb \times aaBb$
- A) 1, 3 B) 1, 4 C) 2, 3 D) 2, 5
60. Sistinuriya moddalar almashinuvining buzilishidan kelib chiqadigan autosomadagi retsessiv gen kasalligi hisoblanadi. Odamda bu belgi gomozigota holatda bo'lsa, buyrakda tosh to'planadi. Geterozigotalarda siyidik tarkibida sistin miqdori yuqori bo'ladi. Ota-onalardan biri sog', ikkinchisinkida sistin miqdori yuqori bo'lsa, sog' farzandlarning tug'ilish ehtimolligini (%) toping.
- A) 25 B) 100 C) 75 D) 50
- ### KIMYO
61. 0,6 l ($P=83,2$ kPa, $t=360$ K) hajmdagi noma'lum modda bug'ining massasi 1,3 g ga teng. Moddaning havoga nisbatan zichligini aniqlang.
- A) 2,68 B) 2,44 C) 2,78 D) 2,29
62. Odatda havo tarkibida hajm jihatdan 0,04% karbonat angidrid bo'ladi. Agar uning havodagi miqdori 0,1% gacha ko'tarilsa, bosh og'rig'i va nafas olish qiyinlashuvni vujudga keladi. 16 ta o'quvchidan iborat, havo almashtirgich tizimi bo'lмаган $5 \times 8 \times 4$ m³ o'lchamli o'quv zalida qancha vaqt (minut) dan so'ng yuqoridagi holatlar kuzatila boshlaydi? (1 ta o'quvchi bir soatda 20 litr karbonat angidrid ajratadi deb hisoblang)
- A) 30 B) 42 C) 360 D) 18
63. Quyidagi birikmalardan qaysilari oltingugurt hisobiga faqat qaytaruvchilik (a), ham oksidlovchi, ham qaytaruvchilik (b), faqat oksidlovchilik (c) xossalarni namoyon qiladi?
- vodorod sulfid; 2) sulfat kislota; 3) oltingugurt(VI) oksid;
 - kaliy gidrosulfat; 5) kaliy gidrosulfit; 6) kaliy gidrosulfid
- A) 1c, 2a, 3b, 4c, 5b, 6b B) 1a, 2c, 3c, 4c, 5b, 6a
C) 1b, 2a, 3c, 4b, 5b, 6a D) 1a, 2b, 3a, 4c, 5b, 6c
64. Berilgan yo'nalishda moddalar tarkibidagi elektron, proton va neytronlar yig'indisi qanday o'zgarishini aniqlang.
- $$SiF_4 \xrightarrow{N_2O_5} CS_2 \xrightarrow{CCl_4}$$
- kamayadi; b) ortadi
- A) 1a, 2b, 3a B) 1a, 2a, 3b C) 1b, 2a, 3a
D) 1b, 2a, 3b
65. Moddalar tarkibidagi σ - va π -bog'lar soni farqi kamayib borishi tartibida joylashtirilgan javobni belgilang.
- temir (II)-gidroksoklorat; 2) magniy gidromanganat;
 - kalsiy asetat; 4) ammoniy fosfat
- A) 3, 1, 4, 2 B) 4, 3, 2, 1 C) 2, 1, 4, 3 D) 4, 1, 3, 2
66. Tarkibida massa bo'yicha 36,5% Me , 25,4% S va 38,1% O bo'lgan moddaning formulasini aniqlang.
- A) $BaSO_4$ B) Na_2SO_3 C) $BaSO_3$ D) $Fe_2(SO_4)_3$
67. CO_2 va C_2H_4 ning hosil bo'lish issiqqliklari mos ravishda, 393,5 va -52,4 kJ/mol ga teng. H_2O ning hosil bo'lish issiqligini (kJ/mol) toping. (56 g etilen gazi yonishidan 2646 kJ issiqlik ajraladi.)
- A) 241,8 B) 258,8 C) 269,1 D) 179,4
68. 20 g mis(II) sulfat pentagidrati 80 g suvdan eritib olingen eritmaning konsentratsiyasini (%) aniqlang.
- A) 25 B) 20 C) 40 D) 12,8
69. 25%li eritmani to'yintirish uchun 15 g tuz qo'shish kerak. Tuzning ushbu haroratdagi eruvchanlik koefitsiyenti 50 ga teng bo'lsa, boshlang'ich eritmaning massasini (g) aniqlang.
- A) 130 B) 140 C) 110 D) 120
70. Quyidagi tuzlar gidrolizga uchraganda ishqoriy muhit hosil qiladiganlarini ajrating.
- $(NH_4)_2SO_4$; 2) $NaNO_2$; 3) CH_3COONH_4 ; 4) K_2SO_4 ;
 - $Cu(NO_3)_2$; 6) $(CH_3COO)_2Ca$
- A) 1; 3; 4 B) 1; 4; 5 C) 4; 6 D) 2; 6

71. 0,6 litr 0,1M li natriy sulfat va 0,4 litr 0,2 M li aluminiy sulfat eritmaları aralashirildi. Hosil bo'lgan eritmadagi SO_4^{2-} ionining molyar konsentratsiyasini (mol/l) aniqlang.
A) 0,2 B) 0,4 C) 0,3 D) 1,4
72. 94,35 g $CaCl_2$ ishqoriy muhitda $KMnO_4$ bilan oksidlanguanda qancha (g) kalsiy perxlorat hosil bo'ladi?
(Reaksiya unumi 78,3%).
A) 159 B) 200 C) 110 D) 140
73. Mis tuzining suvdagi eritmasi orqali 2,68 soat davomida necha amper tok kuchi o'tkazilsa, 12,8 g mis metali ajralib chiqadi? Tokka nisbatan unum 80%.
A) 3 B) 5 C) 2 D) 4
74. Mis(II) sulfat eritmasiga massasi 33,6 g temir plastinka tushirildi. Biroz vaqtidan keyin plastinka eritmadan olinib, quritildi. Plastinkaning massasi 36,8 g ga teng bo'ldi. Reaksiya natijasida hosil bo'lgan yangi tuzning massasini (g) aniqlang.
A) 32 B) 64 C) 60,8 D) 8
75. Cu^{2+} kationi quyidagi qaysi reagent bilan aniqlanadi?
A) kaly sulfid B) kaly sulfat C) kaly xlorid
D) kaly bromid
76. 1,67 g metall karbonatning nitrat kislota bilan ta'sirlashuvidan 2,07 g metall nitrati hosil bo'lsa, metall karbonatning formulasini aniqlang.
A) Na_2CO_3 B) $CaCO_3$ C) $PbCO_3$ D) $FeCO_3$
77. Quyidagi qaysi modda natriy bilan faolroq reaksiyaga kirishadi?
A) propanol B) etanol C) izopropanol D) suv
78. Tarkibida Cu , Al , Zn va Mg saqlagan 5,67 g qotishmaga $NaOH$ eritmasi ta'sir ettirilganda 1,232 litr (n.sh.) gaz ajraldi va 2,8 g qoldiq erimay qoldi. Xuddi shunday massali namunaga HCl ta'sir ettirilganda 1,456 litr (n.sh.) gaz ajraldi va erimagan qoldiq qoldi. Qotishma tarkibidagi magniyning massasini (g) aniqlang.
A) 0,27 B) 0,24 C) 2,56 D) 2,6
79. Qizdirilgan fosfor 19,17 g xlorda to'la yondirilganda, 22,89 g fosfor (III) va fosfor (V) xloridlar aralashmasi hosil bo'ldi. Olingen galogenidlar aralashmasini mo'l miqdordagi suvda gidrolizidan hosil bo'lgan moddalarini to'la neytrallash uchun 0,5M li natriy gidroksid eritmasidan qancha hajm (litr) talab etiladi?
A) 0,66 B) 3,6 C) 2,8 D) 1,74
80. Rux metali ikki xil konsentratsiyali nitrat kislotalarda eritilganda ajralgan NO va N_2O larning hajmlari nisbati 4:1 bo'lsa, reaksiyaga kirishgan Zn larning mol nisbatini aniqlang.
A) 3:4 B) 3:8 C) 3:2 D) 1:1
81. Alkanning geliyga nisbatan zichligi 14,5 ga teng bo'lsa, alkanning formulasini aniqlang.
A) C_2H_6 B) CH_4 C) C_3H_8 D) C_4H_{10}
82. Massasi 3,2 g bo'lgan metanga 6 g X gaz qo'shilganda hosil bo'lgan aralashmaning o'rtacha molekulyar massasi 23 ga teng bo'ldi. X gazni toping.
A) C_3H_6 B) C_2H_6 C) C_2H_4 D) C_2H_2
83. Vodorod va uglerod massalari nisbati 1:5,25 bo'lgan metan va etilen aralashmasidan A litr berilgan. Gazlar aralashmasidagi alkenning hajmini (litr) aniqlang.
A) $\frac{3A}{4}$ B) $\frac{4A}{5}$ C) $\frac{A}{4}$ D) $\frac{A}{5}$
84. 60% qo'shimchasi bo'lgan 80 g texnik kalsiy karbidni mo'l miqdordagi suvda eritilganda necha litr (n.sh.) atsetilen ajralib chiqadi?
A) 22,4 B) 5,6 C) 33,6 D) 11,2
85. Etilenglikolga 1:1 nisbatda xlorid kislota ta'sir ettirilganda olingen mahsulotni aniqlang.
A) 1-xloretandiol-1,2 B) vinilxlorid C) etilenxlorigidrin
D) 1,2-dixloretan
86. To'yangan bir atomli spirtning 602 ta molekulasi bilan shuncha molekula sirkva kislota ta'sirlashganda (sulfat kislota ishtirokida) $6,6 \cdot 10^{-20}$ g murakkab efr olindi ($\eta=0,75$). Spirtni aniqlang.
A) propanol B) butanol-1 C) etanol D) metanol
87. Glukoza namunasi teng ikki qismiga ajratildi va birinchi qismi moy kislotali, boshqasi sut kislotali bijg'itildi. Agar har ikkala reaksiyalarda hosil bo'lgan kislotalar massalari teng, hamda birinchi reaksiya unumi 75% bo'lsa, ikkinchi reaksiya unumini toping.
A) 73,3 B) 48,9 C) 50 D) 36,7
88. Qaysi modda tibbiyotda isitma tushiruvchi va og'riqni goldiruvchi modda sifatida ishlatalidi?
A) salitsil kislota B) atsetanilid C) pikramid
D) sulfanil kislota
89. Quyida keltirilganlar orasidan aralash element – organik birikmalarni ajrating.
1) CH_3MgI ; 2) $(CH_3)_3P$; 3) CH_3Na ; 4) $(CH_3)_3SiCl$;
5) $(R)_2PCl$; 6) $(CH_3)_4Si$
A) 1, 4, 5 B) 2, 3, 4, 5 C) 1, 2, 5, 6 D) 1, 2, 4, 6
90. Molekulyar og'irligi 140000 ga teng bo'lgan polietilenning polimerlanish darajasini toping.
A) 5000 B) 100 C) 1000 D) 500